



## YANGI RENESSANS DAVRIDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLARNING FAOLLIGINI OSHIRISH

*A'zamova Maxliyo Abduraximovna*

Buxoro davlat universiteti, Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada liderlik qobilyatini shakllantirish, yoshlar o'rtasida faollikni oshirishimiz va yurtimizni yangi marralar tomon boshlamog'imiz haqida so'z boradi. Yoshlarimiz har jahbada zafar quchishlarida liderlik orqali faollikni oshirib, yangi renessans poydevorini birgalikda birlashib qurishimiz kerak.

Liderlik (inglizcha: leader — yetakchi, boshlovchi so'zidan) — umumiy bir ishni bajarishda boshqalarning yordami va haraktini birlashtiruvchi ijtimoiy ta'sir jarayoni. Liderlik bu alohida shaxs, shu bilan birga guruhg'a ta'sir ko'rsata olish qobiliyati bo'lib, barchanining harakatlarini tashkilot maqsadlariga erishishga yo'naltiradi, ingilizcha lider "rahbar; "Qo'mondan"; "yo'lboshchi; "yetakchi" deb tarjima qilinadi. Ma'lum muammoni yechishda guruh liderni ilgari suradi. Lidersiz hech bir guruh faoliyat ko'rsata olmaydi. Liderni ma'lum maqsad uchun kishilar guruhini birlashtira oladigan shaxs sifatida qarash mumkin.

"Lider" tushunchasi 266 "maqsad" tushunchasi bilangina ahamiyat kasb etadi. Lekin bu maqsadga o'zining harakatlari bilangina erishish liderlikka xos emas. Liderlikning tarkibiy qismlaridan biri liderga ergashuvchilarining mavjud bo'lishidir. Liderning asosiy vazifasi insonlarni o'zining orqasidan ergashtirgan holda yagona maqsad doirasidagi vazifalarni yechish uchun guruh a'zolari o'rtasida samarali munosabatlarni o'rnatishdir. Ya'ni lider-insonlardan iborat tizimini tartibi soluvchi element hisoblanadi. Bugungi Yangi renessans davrida jamiyatga va davlat boshqaruviga chinakam faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, kritik fikrlaydigan, mas'uliyaqtni o'z zimmasiga oladigan bir so'z bilan aytganda lider yoshlar zarur. Lider o'z-o'zidan shakillanib qolmaydi, bu uchun mehnat va o'z ustida tinmay ishlashi zarur. Liderlik bo'yicha turlichcha qarash, turlichcha fikrlar mavjud. Olimlar bu haqida ya'ni zamonaviy menejmentda liderlikni tavsiflashda yagona yondashuv mavjud emas: - Liderlik hukumronlikning bir turi bo'lib, uning asosiy xususiyati yuqorida pastga yo'naltirilganligidir. U bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan hokimiyat sifatida namoyon bo'ladi (J. Blondel); -Liderlik - qaror qabul qilish bilan bog'liq boshqaruv statusi, ijtimoiy mavqye bo'lib, rahbarlik lavozimidir. Jamiyat a'zolari turli ijtimoiy rollar va statusga shaxslardan iborat bo'ladi. Rahbarning ijtimoiy statusi uning lideri ko'rinishidagi ijtimoiy rolni bajarilishini taqozo etadi. (L. Daunton); -Liderlik - boshqalardan ta'sir etish bo'lib, bu ta'sir quyidagi shartlarga javob berishi kerak. (V.Kas, L. Edinger); ta'sirning doimiyligi, ta'sirning haqqoniyligi. - Liderlik - guruhdagi tabiiy ijtimoiy- psihologik jarayon bo'lib, shaxsning shaxsiy obro'sining guruh a'zolariga ta'sir etishga asoslangan. Ta'sir g'oyalar, bazani va yozma murojaat, ishontirish, ruhiy ta'sir, shaxsiy namuna, majburlash orqali amalga oshirilishi mumkin. - Liderlik norasmiy hodisa bo'lib, guruhning ruhiy psihologik umumiyligining ramzi hisoblanadi va guruh a'zolarning harakatlari uchun namuna vazifasini o'raydi.

Krichevskiyning fikriga ko'ra, liderlik o'z-o'zidan paydo bo'ladi, ya'ni psihologik hodisalanadi, rahbarlik esa ijtimoiy xususiyatga ega bo'ladi. Hal etilayotgan muammoning ko'lashiga qarab liderlikning quyidagi ko'rinishlari mavjud: - kundalik yumushlarga asoslangan lider (oila,



maktab, talabalar guruhidagi liderlik); - ijtimoiy lider (ishlab chiqarish, kasaba uyushmalari harakati, ijodiy va sport jamiyatlarida); -siyosiy lider (davlat, jamoat arboblari). Bu liderlarning o'zaro bog'liqligi mavjud bo'lib, bиринчи guruhdagi liderlar boshqa turlarga o'tish imkoniyatiga ega. Liderlik va rahbarlik tushunchalarini qat'iy chegaralash mumkin emas- ingliz, nemis tillarida va boshqa bir qator yevropa tillarida liderlik va rahbarlik bir so'z bilan ifodalanadi «leadership» (inglizcha) va «Fuhrungue » (nemischa). Sosiologiya va siyosatshunoslikda ham rasmiy va norasmiy liderlik ajratib ko'rsatiladi. Bunda rasmiy lider- rahbar hisoblanadi, norasmiy lider esa rahbarlik salohiyati va qobiliyatiga ega, lekin rahbar statusidagi bo'lмаган shaxsga nisbatan qo'llanadi. 267 Zamонавиy menijmentda liderlik muommolari bugungi kunda O'zbekistonda va jaxonda ro'y berayotgan o'zgarishlar menejerning va liderning tashkilotdagi o'rniga yangicha yondoshishni taqozo etadi. Xozirgi paytda menejer va lider tushunchalari o'zaro bog'liq holda o'rganilmoqda: Menejmentning yangi – innotvasion yo'naliishi yuzaga kelishi barcha darajadagi menejerlarning liderlik ko'nikmalariga ega bo'lishini taqozo etadi. Muallif fikriga ko'ra lider va menejer bir qator hususiyatlari ko'ra farqylanadi Liderlik vazifasi o'zining tarafдорлари qarashlarini kelishilgan harakatlar dasturiga joriy etishga asoslanadi. Lider yangi guruhlarni shakllantiribgina qolmay, mavjud guruhlarning birdamligini ham ta'minlaydi. Lider o'z guruhining xususiyatlarini, maqsadlarini ifodalaydi va aynan shu guruh uchun xos bo'ladi.

Yurtimiz kelajagi deb, biz yoshlar harakatda bo'lмog'imiz bugungi kunning eng dolzarb masalasidir, Zero, Prezidentimiz SH,M,Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yoshlar bizning xazinamizdir". Bu ishonchni oqlash uchun jamiyatimizga o'z fikriga, so'ziga ega, eng muhim o'zi bilan birga boshqa yoshlarni ham ergashtira oladigan liderlarni tarbiyalab bormog'imiz zarur. Bunday yoshlar mamalakatimizda tobora isloh qilinib, rivoj topayotgan har qaysi sohaning yetuk mutaxassis bo'lishi mumkin. Liderlik bilan inson hayoti davomida har qanday holatda o'zining prinsipi orqali yutib keta oladi. Hozirgi davr talabidan kelib chiqgan holda shuni aytishimiz mumkinki, yangi renessansni liderlik qobiliyatini rivojlantirgan holda yoshlarni faolligini oshirib borishimiz, ularda yangi g'oya va takliflarni shakllantirib, amalga tatbiq etishimiz darkor. Yangi O'zbekistonni yoshlar nigohida aks ettirib, ular orqali yangi renessansni liderlar bilan barpo etamiz. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, liderlik qibiliyatini shakllantirib, yoshlar o'rtaida faollikni oshirishimiz va yurtimizni yangi marralar tomon boshlamog'imiz zarur albatta. Yoshlarimiz har jabhada zafar quchishlarida liderlik orqali faollikni oshirib, yangi renessans poydevorini birgalikda birlashib quramiz.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Nazarova, M. (2021). BOSHLANG\_ ICH TA 'LIM O\_ QUVCHILARINING PSIXIK TARAQQIYOTIDA INTEGRATSIYAVIY-INNOVATSION YONDASHUVLAR АHAMИYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
2. Baxriyeva, N. (2020). СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
3. Nematova, R. R., & Narziyev, B. N. (2022). THE ROLE OF NATIONAL GAMES IN INCREASING THE PHYSICAL ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(1), 6-11.
4. Izatovna, T. S. (2022). Theoretical and Scientific Approach to the Psychology of Adolescent Twins in the Process of Social Adaptation. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 3(2), 51-57.



5. Нематова, Р. Р. (2019). ХАРАКТЕРИСТИКА КОММУНИКАЦИИ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ФЕНОМЕНА. *Теория и практика современной науки*, (5), 449-451.
6. Худойкулова, Г. Б. (2019). Psychological mechanisms of the formation of interpersonal activity motivation for interactive activities in small groups. *Psixologiya*, (1), 32-35.
7. Исматова, Д. Т. (2016). РОЛЬ СЕМЬИ В ОБЩЕСТВЕ. *NovaInfo. Ru*, 3(57), 556-560.
8. A'zamova, M. A., Hakimova, F. K., & Sirojov, S. F. O. G. L. (2022). Life strategies of modern youth. *Science and Education*, 3(2), 1067-1072.
9. Назарова, М. М. К. (2022). Профилактика девиаций в подростковый период. *Science and Education*, 3(2), 1306-1312.
10. Murtazoyevna, Q. D., & Jamilovna, A. Z. (2021). FEATURES OF EMOTIONS IN THE UPBRINGING OF CHILDREN. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 60-64.
11. Ахмедов, А. А., & Зикиряева, М. М. (2020). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ВООБРАЖЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ. *Новый день в медицине*, (1), 151-154.
12. Izatovna, T. L., & Izatovna, T. S. (2021, February). PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY. In *E-Conference Globe* (pp. 98-104).
13. Baxriyeva, N. (2020). Maktabgacha yoshdag'i bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
14. Исматова, Д. Т. (2022). Социально-психологические особенности отношений в молодой семье. *Science and Education*, 3(2), 1147-1154.
15. Кодирова, Д. М. (2022). Психологические аспекты формирования этических отношений у дошкольных детей. *Science and Education*, 3(2), 1161-1168.
16. Ganjiyev, F., & Kosimova, S. Heads Of Competence In Psychologically School Education.
17. ҲАКИМОВА, Ф. Ҳ. Мослаша олмаслик хусусиятларининг мактабгача ва кичик мабтаб ёшидаги болаларда турли психологик қўринишлари. *PSIXOLOGIYA* Учредители: Бухарский государственный университет, (4), 86-88.
18. Zulfiddinovich, S. Z. (2022). IMPROVING THE SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT IN TROUBLED AND TROUBLING FAMILIES. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(03), 5-12.
- A'zamova, M. (2021). Mahallada psixologik xizmat ko'rsatishning empirik asoslari. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 7(7).
19. Ганджиева, Ф., & Кодирова, Д. (2020). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYALANUVCHILARI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).
20. Jamilovna, A. Z. (2021). PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 304-307.
21. Ахмедова, З. Ж. (2022). Трудностисоциальная адаптация студентов в вузе. *Science and Education*, 3(2), 1054-1059.